



Pedagogika fanlari

TA'LIM TIZIMIDA 4 K MODEL ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI

Sabirova Nasiba Ergashevna

*Xorazm pedagogic mahorat markazi, "Tillarni o'qitish metodikasi"
kafedrasi mudiri, professor, filologiya fanlari doktori (DSc)
sabnas1@yandex.ru*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17904229>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XXI asr ko'nikmalari nimalardan iborat ekanligi va ta'lim-tarbiya jarayonida bu ko'nikmalarni qanday tashkil etish borasida fikrlar yuritiladi. XXI asr ko'nikmalari butun dunyo bo'ylab tarqalayotgani, biroq u amaliyotda hali to'laqonli amalga oshmayotgani barchamizga ma'lum. Bu amaliyot bugungi kunda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda qo'llana boshladi. Bu ko'nikmalar asta-sekin mamlakatimizda barcha maktablarda amalga oshiriladi, albatta. Shuningdek, ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida "4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni maktablarda qo'llash yo'llari ham tahlil qilindi va kerakli tavsiya va xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar. XXI asr ko'nikmalari, ta'lim-tarbiya jarayoni, "4K" modeli, tasniflash, innovatsion yondashuv, metod.

Abstract. This article discusses what the skills of the 21st century are and how to organize these skills in the educational process. We all know that the skills of the 21st century are spreading all over the world, but they are not yet fully realized in practice. Today, this practice is being used in presidential and specialized schools. These skills will gradually be implemented in all schools in our country, of course. Also, in this article, the ways of using the innovative approach based on the "4K" model in schools were analyzed and the necessary recommendations and conclusions were developed.

Key words. 21st century skills, educational process, "4K" model, classification, innovative approach, method.

Аннотация. В данной статье рассматривается содержание навыков XXI века и вопросы их формирования в образовательном процессе. Несмотря на то что навыки XXI века распространяются по всему миру, их полноценная реализация на практике пока не достигнута. На сегодняшний день эти подходы начали внедряться в президентских, творческих и специализированных школах. Постепенно они будут реализованы и во всех школах нашей страны. В статье также анализируются пути применения инновационного подхода, основанного на модели «4К», в учебно-воспитательном процессе, а также представлены необходимые рекомендации и выводы.

Ключевые слова: навыки XXI века, образовательный процесс, модель «4К», классификация, инновационный подход, метод.

Sharq hikmatlarida "Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi", - deya bejiz ta'kidlanmagan. Ta'lim mazmun va mohiyatan jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasiga borib taqaladi. Ta'lim rivojlanishi bilan odamlar orasida fikrlash kengayib, yurt rivojlanib boradi. Yurt rivoji yoshlar qo'lida bo'lgani uchun ta'limga katta investitsiyalar kiritilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta'lim olish



imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat".

2023-2024-o'quv yilidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan o'quvchilarga 1-4-sinflarda boshlang'ich, 5-9-sinflarda tayanch hamda 10-11-sinflarda o'quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Xususan: Ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan tayyorlandi. Yangi darsliklar ta'lim oluvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda "4K" modelini (tanqidiy fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) qo'llash orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

2023-2024-o'quv yilidan 124 ta maktabda yuqori sinf o'quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda. Bunda 5-9-sinf o'quvchilariga vazirlik tomonidan tasdiqlangan tayanch o'quv reja asosida tayanch bilimlar berilmoqda.

Tanlov fanlari 4 ta yo'nalish (matematika-fizika, ona tili-chet tili, kimyo-biologiya, matematika-chet tili) bo'yicha joriy etildi. Yo'nalishlar o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatini hisobga olgan holda o'tkazilgan so'rovnomalar asosida shakllantirildi. Belgilangan tayanch o'quv rejaga muvofiq, 4 ta yo'nalish bo'yicha 11 ta majburiy va 2 ta tanlov fani o'qitilyapti.

Ushbu maktablarda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tajribasidan kelib chiqqan holda baholashning yangi formativ-summativ tizimi joriy etilmoqda.

Tajriba-sinov maktablariga uzluksiz metodik yordam ko'rsatish maqsadida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar biriktirildi. Xususan, bu tizimni Xorazm viloyatida 29 ta maktabda joriy qilish amalga oshirila boshlandi va 58 nafar trener o'qituvchilar tomonidan ushbu maktablarda tizim haqida aniq tushunchalar va amaliy yordamlar berib borildi.

Ma'lumki, "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturini keng yoritish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning baholash tizimini qo'shimcha 1000 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy qilish, fanlardagi amaliy mashg'ulotlar ulushini 60%gacha oshirish ham belgilangan.

Bugungi ta'lim-tarbiya jarayonidagi yangi innovatsion yondashuv natijasini, ya'ni XXI asr ko'nikmalarini, avvalo o'quvchilarning dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rishimiz mumkin. Ta'limning asosiy maqsadi - o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini, hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat. Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda "4K" tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratadi.



PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda “4K”ni o‘z ichiga olgan, muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishyapti.

XXI asr uchun muhim ko‘nikmalar: 1980-yillarning boshidan beri turli hukumat, akademik, notijorat va korporativ tashkilotlar hozirgi va keyingi avlodlar uchun zarur deb hisoblaydigan asosiy shaxsiy, akademik ko‘nikma va malakalarni aniqlash uchun muhim tadqiqotlar o‘tkazib kelmoqdalar. XXI asrning ta’lim va ish joyidagi ko‘nikmalarini aniqlash va amalga oshirish Amerika Qo‘shma Shtatlarda boshlangan. XXI asr ko‘nikmalari – insonlar uchun jamiyatda va ish joyida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar, qobiliyatlarini va o‘rganishga moyilliklarni o‘z ichiga oladi.

XXI asr kishisida bo‘lishi kerak, Asosiy ko‘nikmalar: o‘qiydi, yozadi, arifmetika va matematikani bajaradi, tinglaydi va gapiradi. **Fikrlash qobiliyatlari:** ijodiy fikrlaydi, qarorlar qabul qiladi, muammolarni hal qiladi, tasavvur qiladi, o‘rganadi va sabablarini tahlil qiladi. **Shaxsiy fazilatlar:** mas’uliyat, o‘zini o‘zi qadrlash, xushmuomalalik, o‘zini o‘zi boshqarish, halollikni namoyon qiladi.

Ish joyida:

Resurslar: resurslarni aniqlaydi, tashkil qiladi, rejalashtiradi va taqsimlaydi.

Shaxslararo aloqa: boshqalar bilan ishlaydi (jamoada a‘zosi sifatida ishtirok etadi, boshqalarga yangi ko‘nikmalarni o‘rgatadi, mijozlarga/mijozlarga xizmat qiladi, yetakchilikni ta’minlaydi, muzokaralar olib boradi, xilma-xillik bilan ishlaydi).

Axborot: ma’lumotni qabul qiladi va ishlatadi (ma’lumotni oladi va baholaydi, tizimlashtiradi va saqlaydi, sharhlaydi va uzatadi; axborotni qayta ishlash uchun kompyuterdan foydalanadi).

Tizimlar: murakkab tizimlarni tushunadi, ish faoliyatini nazorat qiladi va tuzatadi, tizimlay oladi, loyihalashtiradi).

Texnologiya: turli texnologiyalar bilan ishlaydi (texnologiyani qilayotgan ishiga nisbatan tanlaydi, texnologiyani vazifasiga ko‘ra qo‘llaydi, jihozlarga texnik xizmat ko‘rsatadi va muammolarni bartaraf qiladi).

Pedagoglar uchun muhim bo‘lgan 3 ko‘nikmalar majmui:

Ta’lim va innovatsiya qobiliyatlari: Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, muloqot va hamkorlik, ijodkorlik va innovatsiya.

Raqamli savodxonlik ko‘nikmalari: Axborot savodxonligi, media savodxonligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) savodxonligi.

Karyera va hayotiy ko‘nikmalari: Moslashuvchanlik, tashabbuskorlik va o‘zini o‘zi boshqarish, ijtimoiy va madaniyatlararo o‘zaro ta’sir, samaradorlik va mas’uliyat.

4K modeli: Kritik -tanqidiy fikrlash — masalaga tanqidiy qarash, tahlil qilish, faktlarni taqqoslash, mantiqiy ketma-ketlikni aniqlash va xulosalar chiqarish.



Kreativlik (ijodkorlik) - noaniq vaziyatlarda o'z bilimlarini qo'llash orqali muammolarga yangi va samarali yechimlar topa olish.

Kommunikatsiya - muloqot qilish - o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda qo'rqmasdan to'laqonli ifoda etish, talqin qilish hamda turli ijtimoiy va madaniy muhitlarda samarali kommunikatsiya qilish.

Kollaboratsiya-jamoaviy ishlash - umumiy maqsadlarni o'z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat qilish, o'z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish.

“4K” modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri.

Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o'quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o'quvchilar faqat fan mazmunini o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir.

Kasbiy kompetentlilik:

kasbiy kompetentlilik – shaxs tomonidan o'z kasbiy faoliyatining samarali tashkil etilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishini anglatadi.

O'qituvchi-pedagoglar kasbiy kompetentligi darajasi quyidagi:

murakkab vaziyatlar vujudga kelganda;

favqulodda vazifalarni bajarishda;

bir-biriga zid ma'lumotlardan o'rni bilan oqilona foydalanishkabi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;

yangi axborotlarni o'zlashtiradi;

davr talablarini chuqur anglaydi;

yangi bilimlarni izlab topadi;

ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Pedagogning kasbiy kompetentligiga xos bo'lgan asosiy belgilar:

1. Har xil yoshdagi tarbiyalanuvchilar bilan ularning yoshi va intellektual imkoniyatlariga tayangan holda ishlay olish.

2. O'z sohasi bo'yicha o'quvchilarning yosh psixologiyasi, jismoniy, ruhiy, pedagogik imkoniyatlarini anglagan holda ish olib borish.

3. Amaliy faoliyatida innovatsion g'oyalardan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish.



4. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlashning har xil shakllaridan foydalana bilish.

5. O'qituvchilar faoliyati bilan bog'liq tashkil etilgan har xil tanlov, festival va musobaqalarda ishtirok etish.

6. Har qanday pedagogik shart-sharoitlarda o'zining o'qituvchilik mahoratini namoyish eta bilish.

7. Mamlakat davriy matbuotida hamkasblari bilan o'z tajribalarini o'rtoqlashish va hk.

Xulosa shuki, o'quvchilarni eslab qolish, tushunish, amalda qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratishga o'rgatsak, umrining oxirigacha foyda keltiradi. Bu jarayonlar, ya'ni XXI asr ko'nikmalari o'quv mashg'ulotlariga tatbiq qilindi va bu o'zgarishlar, albatta, o'z samarasini beradi. Zero, bu ko'nikmalar XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan eng muhim hayotiy ko'nikmalardir. O'quvchilar bilimini to'g'ri yo'naltirish, iqtidorini aniqlash hamda istaklari sari harakatga undash, kelesidagi egallamoqchi bo'lgan kasbiga ishonchni mustahkamlash ta'im tizimining asosiy maqsadidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/21st_century_skill
2. <https://www.gazeta.uz/ru/2023/12/30/4k/>
3. Xodiyeva G. H. Boshlang'ich ta'limda 4k modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari. "Ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 20.02.2024
4. Saidova G.H. Ta'lim samaradorligini oshirishning "4k" kompetensiyalari: kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, kooperatsiya. "Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches. International scientific-practical conference. 13.11.2023